

Burxonova Gulmira Olimjon qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil
tadqiqotchisi
burxonovagulmira795@gmail.com
+998999729029

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SOTSIOMADANIY
KOMPONENTLI MATNLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA
IDIOMALARNING MADANIY-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

***Anotatsiya.** Ushbu maqolada frazeologik birliklar va idiomalarning madaniy va semantik xususiyatlari xususida so'z boradi va tahlillar keltiriladi. Izlanishlar davomida frazeologizmlarning ilmiy-madaniy mazmuni va semantic maydondagi o'xshash va farqli jihatlari adabiy manbalar orqali qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalari nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:** Frazeologik birlik, sotsiomadaniy komponent, lingvokulturologik tahlil, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o'zbek tili*

Бурхонова Гульмира Олимжоновна
Исследователь Наманганского государственного института иностранных
языков имени Исхоходжана Ибрата
burxonovagulmira795@gmail.com
+998999729029

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ
ТЕКСТАХ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**

Аннотация. В статье рассматриваются культурные и семантические особенности фразеологических единиц и идиом, а также представлены соответствующие аналитические материалы. В ходе исследования научно-культурное содержание фразеологизмов, а также их сходства и различия в семантическом поле анализируются на основе литературных источников в сопоставительном аспекте. Результаты исследования имеют важное значение с точки зрения лингвокультурологии и переводоведения.

Ключевые слова: фразеологическая единица, социокультурный компонент, лингвокультурологический анализ, сопоставительный анализ, английский язык, узбекский язык

Burxonova Gulmira Olimjon qizi

Researcher at Is'hoqhon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages

burxonovagulmira795@gmail.com

+998999729029

A LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN SOCIO-CULTURAL TEXTS OF ENGLISH AND UZBEK

Abstract: *This article examines the cultural and semantic characteristics of phraseological units and idioms, presenting relevant analyses. In the course of the research, the scholarly and cultural content of phraseological units, as well as their similarities and differences within the semantic field, are comparatively analyzed on the basis of literary sources. The results of the study are of significant importance from the perspectives of linguocultural studies and translation studies.*

Keywords: *phraseological unit, socio-cultural component, linguoculturological analysis, comparative analysis, English language, Uzbek language.*

Kirish

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Har bir til o'z xalqining ijtimoiy-madaniy hayotini, urf-odat va an'analarini aks ettiruvchi sotsiomadaniy komponentlarga boy bo'lib, bu birliklar ko'pincha frazeologik va idiomatik shakllarda namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar va idiomalar, ularning madaniy va semantik xususiyatlari, shuningdek, boshqa til va madaniyatga tarjima qilinishi jarayoni lingvokulturologik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi — ingliz va o'zbek tillaridagi sotsiomadaniy komponentli matnlarda frazeologik birliklar va idiomalarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish va ularning semantik hamda madaniy xususiyatlarini qiyosiy ravishda aniqlashdir.

Adabiyotlar tahlili

Umuman olganda frazeologiya nazariyasi haqida so'z borganda uning shakllanishiga katta hissa qo'shgan rus tilshunoslik maktabining vakillarini e'tirof etish o'rinlidir. Jumladan, V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni semantik yaxlitlik darajasiga ko'ra tasniflab, ularning ichki ma'no munosabatlarini tizimli ravishda asoslab bergan. N.M. Shanskiy frazeologik birliklarning struktur-semantik tasnifi va ularning til tizimidagi funksional xususiyatlarini rivojlantirgan. A.V. Kunin ingliz frazeologiyasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borib, frazeologizmlarning nominativ va kommunikativ imkoniyatlarini keng yoritgan.

Lingvokulturologik yondashuv asosida esa V.N. Teliya frazeologik birliklarni madaniy axborotni saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida baholab,

ularning milliy-kulturologik konnotatsiyasini aniqlash zarurligini ta'kidlaydi. E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov lingvomadaniy birlik tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni kommunikativ jarayon bilan izohlab berganlar. V.A. Maslova lingvokulturologiyani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida tizimlashtirib, konsept, madaniy kod va milliy stereotip tushunchalarini keng yoritgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot davomida bir qator lingvistik metodlardan foydalanildi. Xususan, tavsifiy metod, qiyosiy metod kabilar bo'lib, bunda frazeologizmning semantik- madaniy xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot materiali sifatida badiiy va publitsistik matnlar, shuningdek, autentik sotsiomadaniy mazmunga ega bo'lgan manbalar tanlab olindi. Lingvokulturologik tahlil yordamida frazeologik birliklar va idiomalar ularning milliy-madaniy mazmuni, semantik qamrovi va matndagi funksional vazifasi bo'yicha guruhlandi va taqqoslandi.

Tahlil

Ingliz va o'zbek tillarida shakllangan idiomalar o'z tarixiy manbaiga ega bo'lsa-da, ularning semantik va obrazli mohiyatida ko'plab mushtarakliklar mavjud. Bu o'xshashliklar ikki xalqning inson, jamiyat, tabiat va hayotga bo'lgan qarashlarining yaqinligidan dalolat beradi. Ingliz va o'zbek tilida insonning axloqiy sifatleri ko'pincha bir xil obrazlar orqali ifodalanadi. Masalan, halollik, saxovat, mehribonlik kabi tushunchalar ikki tilda ham "yurak", "qo'l" kabi ramzlar orqali tilga olinadi. Ingliz tilidagi "*good-hearted*" birikmasi o'zbek tilidagi "ko'ngli keng", "yaxshi ko'ngilli" iboralari bilan semantik jihatdan mos keladi. Bu iboralar insonning mehribonligi, boshqalarga nisbatan samimiy munosabatini bildiradi. Shu kabi "*open-handed*" iborasi o'zbek tilidagi "qo'li ochiq" bilan bir xil mazmunga ega bo'lib, saxovatli, boshqalarga yordam berishga tayyor insonni ifodalaydi.

Badiiy misol:

Charles Dickensning “A Christmas Carol” asarida qahramonning saxiylikni anglash jarayoni tasvirlanganida “*his newly open hand*” kabi ifoda ishlatiladi. O‘zbek adabiyotida O‘. Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarida ona obrazini tasvirlar ekan, “*ko‘ngli keng ayol*” deya ta’riflaydi. Bu ikki matnda ishlatilgan idiomalar bir xil madaniy qadriyat – mehr-oqibatni yuksak baholashga asoslanadi. Shu bilan birga har ikki xalq tafakkurida insonning hayotdan saboq olishi, tajribali bo‘lishi jamiyatda yuqori baholanadi. Shu sababli idiomalarda ham tajriba ko‘pincha obrazli ifodalar orqali beriladi. Quyida shu kabi misollarni ko‘rib chiqsak.

1. Ingliz tilida:

“*God bless us, every one!*” [Oxford, 2008, p. 94]

O‘zbek adabiyotida:

“*Xudo o‘zi asrasin*” [O‘. Hoshimovning *Dunyoning ishlari* Sharq, 2018, p. 57]

Ch. Dickensning huddi shu asaridan ushbu iborasi ijobiy niyat, duo va muhabbat timsolidir. Xuddi shu mazmun O‘. Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida “*Xudo o‘zi asrasin*” tarzida ifoda e’tilib keladi. “Ushbu parallelizm har ikki xalqning diniy-madaniy an’analarida “duo/blessing”ning hayotiy kuch sifatida qabul qilinishini ko‘rsatadi. Har ikki tilda “blessing/duo” birliklari jamiyatning e’tiqodiy-madaniy dunyoqarashiga tayangan bo‘lib, ijobiy niyat, saxovat, mehr-oqibat qadriyatlarini ifodalaydi.

2. Ingliz tilida :

“*She learned through her own trials*”

O‘zbek adabiyotida:

“Dunyo ko‘rgan”

Jane Austinning “Pride and Prejudice” asarida Elizabethning hayotiy qarorlarida tajriba orttirib borishi tarzida ifodalanadi. O‘zbek adabiyotida A. Qahhor “Sinchalak” asarida tajribali odamni *“dunyo ko‘rgan”* deb ta’riflab, uning so‘zi ishonchli ekanini ko‘rsatadi.

3. Ingliz tilidan

“To learn the hard way”

O‘zbek tilida

“Jonli tajribada sinab ko‘rmoq”

Ushbu frazeologik misollar hamo‘zaro mos keladi. Ikkala ibora ham bir narsani boshdan kechirish orqali anglashni bildiradi. Qahhor *“dunyo ko‘rgan”* iborasini ko‘proq hayot sinovlarini boshidan o‘tkazgan, tajribaga ega, ishonchli shaxs ma’nosida qo‘llaydi — bu ingliz tilidagi *“experienced,” “weathered,”* yoki *idiomatik “learned the hard way”* mazmuniga yaqin. Bu ikki tilda ham sotsiomadaniy jihatdan universal tushuncha: insonning hayotiy qarorlarida aynan boshidan o‘tgan voqealar asosiy o‘qituvchi bo‘ladi. Umuman olganda frazeologik birliklar tarjima jarayonida hushyorlikni talab qiladi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi sotsiomadaniy komponentli matnlarda qo‘llanilgan frazeologik birliklar va idiomalarning muhim lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil jarayonida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

1. Har ikki tilda ham frazeologik birliklar milliy-madaniy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va diniy e’tiqodlar bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. Xususan, mehr-oqibat, saxovat, halollik, tajriba kabi universal tushunchalar obrazli ifodalar

orqali berilishi kuzatildi. “Good-hearted” – “yaxshi ko‘ngilli”, “open-handed” – “qo‘li ochiq” kabi birliklar semantik jihatdan ekvivalent bo‘lib, ular insonning ijobiy fazilatlarini ifodalashda o‘xshash metaforik modellarga asoslanadi.

2. Hayotiy tajriba va sinovlarni ifodalovchi idiomalar (“to learn the hard way”, “dunyo ko‘rgan”) mazmunan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi va stilistik yuklamasida ayrim farqlar mavjudligi kuzatildi. Ingliz tilida tajriba individual sinovlar orqali shakllanishi ta’kidlansa, o‘zbek tilida bu jarayon ko‘proq ijtimoiy-hayotiy tajriba bilan bog‘liq holda ifodalanadi.

3. tarjima jarayonida to‘liq ekvivalentlik har doim ham kuzatilmaslgi, ayrim hollarda semantik moslik qisman yoki kontekstual xarakterga ega bo‘lishi aniqlandi. Shu bois frazeologik birliklarni tarjima qilishda lingvokulturologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi sotsiomadaniy komponentli matnlarda frazeologik birliklar va idiomalar milliy-madaniy ma’lumotlarni etkazuvchi muhim vosita hisoblanadi. Ularning semantik va madaniy xususiyatlari til birliklarida xalqning mentaliteti, urf-odat va qadriyatlarini aks ettiradi. Qiyosiy tahlil esa frazeologik birliklar va idiomalarning boshqa tilga tarjima jarayonida yuzaga keladigan o‘xshash va farqli jihatlarni ochib beradi. Olingan natijalar lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. — Oxford: Blackwell, 2003. 119 p

2. Geeraerts, D. *Theories of Lexical Semantics*. — Oxford: Oxford University Press, 2010. —23 p
3. Lyons, J. *Semantics*. Vol. 1–2. — Cambridge: Cambridge University Press, 1977. —86 p
4. Hardy, T. *Tess of the d'Urbervilles*. — London: Penguin Classics, 2003. — 52 p.
5. Brontë, Ch. *Jane Eyre*. — London: Penguin Classics, 2006. — 112 p.
6. Dickens, Ch. *Great Expectations*. — London, 1861. — 240 p
7. Austen, J. *Pride and Prejudice*. — London, 1813. — 113 p
8. Qodiriy, A. *O'tkan kunlar*. — Toshkent, 1926. —87-88 b
9. Qodiriy, A. *Mehrobdan chayon*. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017. — 73 b.
10. Улуғов, Б. *Лексик семантика масалалари*. — Тошкент: Фан, 1981. — 15 b